

Foydali modelga, sanoat namunasiga hamda dori vositasi yoki pestisidga taalluqli ixtiroga O'zbekiston Respublikasi patentining amal qilishini uzaytirish  
QOIDALARI

**(O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasining direktorining 2007 yil 3 apreldagi  
25-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya  
vazirligida 2007 yil 5 mayda 1678 - raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan)**

Foydali modelga, sanoat namunasiga hamda dori vositasi yoki pestisidga taalluqli ixtiroga O'zbekiston Respublikasi patentining amal qilishini uzaytirish qoidalari (bundan buyon matnda Qoidalari deb yuritiladi) "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga (bundan buyon matnda Qonun deb yuritiladi) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002 yil 19-son, 143-modda) muvofiq foydali modelga, sanoat namunasiga hamda dori vositasi yoki pestisidga taalluqli ixtiroga O'zbekiston Respublikasi patentining amal qilishini uzaytirish tartibini belgilaydi.

## **1-§. Umumiy qoidalar**

1. Qonunning 5-moddasiga muvofiq patent berish haqidagi talabnama O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasiga (bundan buyon matnda Patent idorasining deb yuritiladi) topshirilgan sanadan e'tiboran ixtiroga patent yigirma yil, sanoat namunasiga patent o'n yil, foydali modelga patent besh yil mobaynida amal qiladi.

Foydali modelga patentning, sanoat namunasiga patentning amal qilishi tegishinchada uch va besh yilga uzaytirilishi mumkin.

Ixtiroga patentning amal qilishi qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda besh yildan ko'p bo'limgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

2. Qo'llanilishi uchun belgilangan tartibda vakolatli organdan ruxsatnomasi olinishi lozim bo'lgan dori vositasi yoki pestisidga taalluqli ixtiroga patentning (bundan buyon matnda ixtiroga patent deb yuritiladi) amal qilishi ixtiroga talabnama berish sanasidan boshlab mahsulotni qo'llash uchun birinchi ruxsatnomasi olingan sanaga qadar hisoblanadigan muddatga uzaytiriladi. Bunda ixtiroga patentning amal qilishi uzaytiriladigan muddat besh yildan oshmasligi kerak.

3. Foydali modelga patentning, sanoat namunasiga patentning amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomasi Patent idorasiga patentning amal qilishi tugagunga qadar so'ngi uch oy ichida yoki patentning amal qilishi tugagandan keyin olti oy ichida qo'shimcha patent bojini to'lash sharti bilan beriladi.

4. Foydali modelga patentning, sanoat namunasiga patentning amal qilishini uzaytirish uchun qonun hujjatlarda belgilangan miqdorda patent boji to'lanadi.

5. Ixtiroga patentning amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomasi Patent idorasiga patentning amal qilishi davomida mahsulotni qo'llash uchun birinchi ruxsatnomasi olingan sanadan yoki patentni berish sanasidan olti oy o'tguniga qadar mazkur muddatlarning qaysi biri kechroq tugashiga bog'liq holda beriladi.

6. Foydali modelga patentning, sanoat namunasiga patentning, ixtiroga patentning (bundan buyon matnda patent deb yuritiladi) amal qilishini uzaytirishga doir ishlarni yuritish mustaqil ravishda patent egasi tomonidan, vakolati qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnomasi bilan tasdiqlanadigan vakil yoki patent vakili orqali amalga oshiriladi.

## **2-§. Iltimosnomani berish va ko'rib chiqish**

7. Patentning amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomasi mazkur Qoidalarga 1- va 2- ilovalarda keltirilgan shakl bo'yicha taqdim etiladi.

Iltimosnomasi patent egasi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Yuridik shaxs nomidan iltimosnomasi lavozimi ko'rsatilgan holda rahbar tomonidan imzolanadi. Imzo muhr bilan tasdiqlanadi.

8. Foydali modelga patentning, sanoat namunasiga patentning amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomaga patentning amal qilishini uzaytirish uchun belgilangan miqdorda patent boji

to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Belgilangan miqdorda patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmaganida iltimosnomani ko'rib chiqishga doir yuridik ahamiyatga ega harakatlar amalga oshirilmaydi.

9. Ixtiroga patentning amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomaga mahsulotni patentlangan ixtiro formulasida tavsiflangan mahsulot bilan identifikasiyalashga imkon beradigan mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlarni, ro'yxatdan o'tkazilgan raqami va vakolatli organidan ushbu mahsulotni qo'llash uchun birinchi ruxsatnoma olingan sanani ichiga olgan rasmiy hujjatning tasdiqlangan nusxasi (rasmiy hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari) ilova qilinadi.

10. Zaruriyat bo'lganida iltimosnomaga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma, shuningdek vorislik huquqi yoki merosga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

11. Iltimosnomha va unga ilova qilinadigan hujjatlar Patent idorasiga bevosita beriladi yoki pochta orqali yuboriladi.

12. Ishonchnoma va unga ilova qilinadigan hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida barcha kerakli hujjatlarning mavjudligi va ularning ushbu Qoidalarning 1-11-bandlarida belgilangan talablarga mos kelishi tekshiriladi.

13. Ushbu Qoidalarning 7-10-bandlarida ko'rsatib o'tilgan kerakli hujjatlar mavjud bo'lmagan va/yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan taqdirda, patent egasiga mavjud bo'lmagan va/yoki tuzatilgan hujjatlarni so'rovnama jo'natilgan sanadan boshlab uch oy ichida taqdim etish zarurligi to'g'risida so'rovnama yuboriladi. Bunda ishonchnomani ko'rib chiqishning belgilangan muddatining o'tishi yetishmayotgan yoki tuzatilgan hujjatlarning oxirgisi kelib tushgunga qadar to'xtatib turiladi.

14. Taqdim etilgan hujjatlar mazkur Qoidalarning talablariga mos kelganida patentning amal qilishi uzaytiriladi.

Patentning amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli Davlat reestriga kiritiladi va Patent idorasining rasmiy byulletenida e'lon qilinadi. Patent egasiga patentning amal qilishi uzaytirilganligi to'g'risidagi yozuvli "Patentga ilova" yuboriladi.

15. Taqdim etilgan hujjatlar mazkur Qoidalarning talablariga mos kelmaganida, shuningdek tuzatilgan yoki yetishmayotgan hujjatlar belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda Patent idorasiga patent egasiga iltimosnomani qanoatlantirish rad etilganligi to'g'risidagi rad etish asoslari ko'rsatilgan bildirishnomani yuboradi.